

Date: 17th October-2025

JADID FAYZULLO XO'JAYEV VA UNING TARIXIY HAYOT YO'LI

Raxmonazarova Adolat

Namangan Davlat Universiteti

tarix mutaxassislig 1- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining vakili Fayzullo Xo'jayev hayot yo'li, jadidchilik faoliyati, mafkuraviy g'oyalari va ularning olib borgan islohotlari haqida ilmiy ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Yosh buxoroliklar qarashlari haqidagi tarixiy faktlar didaktik va falsafiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadid, mafkura, Fayzullo Xo'jayev, islohot, g'oya, yosh buxoroliklar.

Annotation: This article provides scientific information about the life path of Fayzullo Khojayev, a representative of Turkestan Jadid enlightenment figures in the late 19th and early 20th centuries, his Jadidist activities, ideological ideas, and the reforms they carried out. Historical facts about the views of the Young Bukharans are analyzed through didactic and philosophical perspectives.

Keywords: Turkestan, Jadid, ideology, Fayzullo Khojayev, reform, idea, Young Bukharans.

Аннотация : В данной статье представлена научная информация о жизненном пути Файзулло Ходжаева, представителя просветительского движения джадидов Туркестана конца XIX – начала XX века, его деятельности в джадидизме, идеологических взглядах и реформах, которые он проводил. Исторические факты о взглядах младобухарцев подвергаются дидактическому и философскому анализу.

Ключевые слова: Туркестан, джадид, идеология, Файзулло Ходжаев, реформа, идея, младобухарцы.

Kirish: Bugungi kunda “Yangi O'zbekiston-yangi dunyoqarash “ shiori ostida mamlakatimizda qator islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu yo'lda jadid bobolarimiz yo'llaridan borishimiz eng to'g'ri yo'l ekanligini quyidagi jumlar bilan ta'kidlaydilar.

Asosiy qism: “Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay



Date: 17th October-2025

borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir¹”(1)

Natijalar taxlili: Jadidchilik harakatining Buxoradagi yorqin vakili bo'lgan Fayzullo Xo'jayev 1896-yil iyul oyida Buxoroyi sharifda taqdiri butun mamlakat taqdiri bilan chambarchas bog'lanib ketgan bir inson sifatida dunyoga keldi. Fayzullo Xo'jayev Buxoroda jamiyat uyg'ongan va talato'plarga to'lgan, reaksiya va taraqqiyparvarlar kurashi avj olgan sharoitda voyaga yetdi.

Otasi yosh Fayzulloni ana shunday murakkab siyosiy jarayonlar kechayotgan, 1905-1907-yillar voqealaridan keyin Moskvaga olib bordi. U Moskvada xususiy rus va nemis o'qituvchilardan zamonaviy ilmlar va tillardan saboq oldi. Bu bilimlar uning dunyoqarashi va характери shakllanishida ijobiy ta'sirini o'tkazdi. 1913-yilda Buxoroga qaytadi va jadidchilik harakatiga qo'shiladi.

Yana shunisi ham ma'lumki, u Germaniyada ham o'qigan, lekin u o'z tahsili haqida biron ma'lumot yozmagan. U faqat uy tahsili bilan cheklanmaganligi uchun, chet mamlakatlar muhiti va tili bilan ma'lum davr yashaganligi uchun ham uning taqdiri o'zgacha, aqli shu qadar o'tkir va keng qamrovli, karyerasi shu qadar shiddatli va ijodiy merosi shu qadar buyukdir. Otasi savdogarlik bilan shug'ullangan va bu ishni otasining vafotidan keyin u bir necha yillar davom ettirgan. Iqtisodiy faravonligi 1918-yil mart oyidagi Buxorodagi voqealardan so'ng Moskvaga olib ketilyotganda uni bir o'limdan saqlab qolishiga sabab bo'ladi².

1920-yil oktyabrda Fayzullo Xo'jayev BXSr Xalq Nozirlari Kengashi raisi etib saylangan. Milliy hududiy chegaralanish va O'zbekiston Respublikasi tashkil qilinganidan so'ng Xalq Komissarlari Soveti raisi va O'z SSR MIQ prezidiumi a'zosiga aylangan. Keyinchalik O'zbekiston SSRning rahbarlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan. U Turkfront harbiy- inqilobiy sovetining a'zosi va SSR harbiy dengiz xalq komissarligining O'zbekiston bo'yicha vakili hisoblangan. Armiya qo'mondoni unvoni ham berilgan. Fayzullo Xo'jayev egallagan lavozimlari juda ko'p, ro'yxati uzun.

Biz uning asosiy lavozim va faoliyatlarini keltirdik xolos. Fayzullo Xo'jayevning taraqqiyparvarlik harakatiga mansubligi, ushbu noyob tarixiy hodisa bilan mustahkam aloqasi uning bu faoliyati bo'yicha maqola va kityoblar yozishiga ham turti bo'ldi.

Uning o'zi “ Qanday qilib bir guruh ziyolilar norozilik bildirib chiqqan harakat qudratli milliy – taraqqiyparvarlik harakati darajasiga ko'tarildi” degan savolga o'zining maqolalari va 1926-yilda chop etilgan “ Buxoro inqilobi tarixiga doir” deb nomlangan kitobida javob beradi. “Jadidlar “ nomli maqolasida jadidchilik nima va u mamlakat ijtimoiy -siyosiy hayotiga, taraqqiyyotiga nima berdi kabi savollarga to'xtalib o'tadi.

¹ . Dilorom Alimova “ Jadidchilik fenemoni” – Toshkent “ Akademnashr” 2022

² . Dilorom Alimova “ Jadidchilik fenemoni” – Toshkent “ Akademnashr” 2022



Date: 17th October-2025



Jadidchilikning batafsil tarixini u “ Buxoro inqilobi tarixiga doir“ kitobida yoritadi. Bu kitobni yozish haqidagi o’y uni uzoq ta’qib qiladi va Sadridin Ayniyning memuar hususiyatga ega “ Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asari chiqqandan so’ng yozishga qaror qiladi.

Xo’jayev Ayniyning kitobini tarixiy-psixologik esse sifatida ijobiy baholaydi va muallifning ayrim fikrlariga qo’shilmaydi va o’z asarida bu asarda yoritilmagan ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni yoritish zarurligini anglaydi. Va o’z navbatida bu ishni uddasidan chiqadi ham. Fayzullo Xo’jayev “Jadidlar “ maqolasida jadidchilik Yosh buxoroliklar partiyasi tuzilishi bilan yakun topgan deb yozgan bo’lsa, kitobida bu masalaga ancha chuqur yondashib, jadidchilikni yosh buxoroliklar harakatining ajralmas qismi deb aytadi. 1926-yilda bu asar o’zbek var us tillarida nashr qilinadi va tez orada qo’lma-qo’l bo’lib ketadi.

Odamlarning hali jadidchilik harakati haqidagi fikrlari tirik edi, mintaqada sovet hokimiyati o’rnatilgach, bor kuchini ta’lim va xalq maorifini rivojlantirishga bag’ishlagan jadidlarning o’zlari ham tirik edi. Fayzullo Xo’jayev barcha maqolalari va kitobida “O’rta Osiyoda millat- inqilobiy harakatga boshchilik qilishga qodir kadrlar kadrlar tarbiyalagni uchun aynan jadidchilik oldida qarzdormiz “ deb bir necha bor takrorlaydi.

Fayzullo Xo’jayevning bu asari deyrli oltmish yillar maxsus kutubxonlarda saqlandi, o’qilishi taqiqlandi. Unga qo’yilgan ayblovlar, nohaqliklar ham talaygina. Ba’zida xalq manfaati yo’lida o’z lavozimlarida faoliyatini davom ettirish uchun sadoqatli itoatgo’y niqobini taqishga to’g’ri keldi va bu jarayonlarni xalq tomonidan noto’g’ri talqin qilindi.³ U Jadidchilikka, taraqqiyotga ishongan va shun bois davlatga 25 pud quyma oltin, 4.8 mln. tilla tanga, 5pud kumush tanga, 7mln atrofida kredit mablag’larni topshirgan , topshirgan yer-mulklari va boshqa boyliklari haqida gapirmasa ham bo’ladi.(1) Farg’ona va Zarafshon vodiylarida, Qarshi cho’li va Sirdaryo viloyatida 50 ga yaqin kanal qurish orqali yangi yerlarni o’zlashtirish loyihasida ham F.Xo’jayevning xizmatlari katta. Uning bu kabi xizmatlarini sanash mumkin emas.

Fayzullo Xo’yev umr davomida O’zbekiston raxbari sifatida xalq xo’jaligi, paxtachilik, sug’orish tizmi , kapital qurilish, madaniyat va ta’lim hamkori sifatida faoliyat yuritgan. Fayzulla Xo’jayev 1937-yilda qatag’on qilingan. 1938-yil 15-martda Moskvada “Kommunarka” poligonida otib tashlangan. Uning qabri qayerda ekanligi noma’lum.

Xulosa: Xulosa o’rnida shuni aytishimiz joizki, agar F.Xo’jayev davlat arbobi bo’lmaganda ajoyib iqtisodchi olim, huquqshunos yoki tarixchi bo’lishi mumkin edi. Bir ma’noda uni tarixchi deb ham bemolol ayta olaman. Chunki tarixiy jarayonlarga to’g’ri yondashuv bera olgan maqola va kitoblar yozish, uni xalqqa to’g’ri anglata olish, o’tgan ajdodlar g’oyalaridan , asarlaridan xulosa olish va davom ettirish, bo’shliqlarini to’ldirish bu haqiqiy yuksak saviyali tarxichining hususiyatlaridir. Barcha ma’rifatparvarlarimiz safida Fayzullo Xo’jayev shaxsi ham bugungi kunda beqiyos va qimmatlidir. Fayzullo

³ Jadid ma’rifatparchilik harakatining g’oyaviy asoslari- T. “Toshkent islom universiteti “ 2016.

Date: 17th October-2025

Xo'jayev og'ir totalitar tuzum sharoitida yashaganligi va faoliyat yuritishiga qaramay, 25 yil davomida taraqqiyot va xalq faravonligi yo'lida fidokorona kurashdi, ma'rifat yo'lida butun umrini sarfladi. Biz bugungi kunda jadidlar nomini sevib tilga olamiz va ularning merosi, taqdiri Germaniya, Turkiya, AQSH, Yaponiya, Markaziy Osiyo davlatlari va jumladan, O'zbekiston olimlarining mavzusiga aylanib ulgurgan. Ma'rifatparvar g'oyalaridan foydalanib yangi yuksak faoliyatlarimizni davom ettirayotganlarimiz haqiqatdan holi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilorom Alimova "Jadidchilik fenemoni" – Toshkent "Akademnashr" 2022
2. Muqminova R.G., Habibullayev N.N., A'zamova G.A., Karimov E.E., Tojiboyev A.A. O'zbekiston tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1994. – B.187.
3. Jadid ma'rifatparchilik harakatining g'oyaviy asoslari- T. "Toshkent islom universiteti" 2016.
4. Mirziyoyev Sh. 2023-yil 22-dekabr Ma'naviyat va ma'rifat kengashi nutqidan.
5. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nodir nashrlar zali milliy matbuot bibliografiyasi katalogi. Toshkent 2010-y

